

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

05-02

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI

ONLINE ISH REJA
ISH JURNALI

QISQA VAZIRLIGI





DIQQAT



Unutmang!!! Ushbu hujjat sizga hech kimga tarqatmaslik sharti bilan **OMONAT** qilib berildi. Agar ushbu hujjat sizga boshqalar orqali kelib qolgan bo'lsa ham **OMONAT** hisoblanadi. Ushbu **OMONAT**ni faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang, hattoki eng yaqin insoningizga ham. Tijoriy maqsadda foydalanmang. Internet va Veb-sayitlarga joylamang. Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.

Telegram orqali admin **Nabiyev Zokirjon** bilan bog'lanish **91-328-88-38** yoki **Jek567**

**O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2025-yil “ 29 ”-avgustdagi
323-son buyrug‘i**

_____shahar (viloyat)
_____tuman “ _____” nomli
____-maktabgacha ta’lim tashkiloti
qisqa guruh tarbiyachisining
2025-2026-o‘quv yili uchun
ISH JURNALI

Tarbiyachilar:_____

Telefon raqami:_____

Tarbiyachilarga tavsiyalar

Ish jurnali tashkilot guruhlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar uchun mo'ljallanadi.

Ushbu hujjatni yuritishdan maqsad – “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi talablarini inobatga olgan holda ertalabki soatlar, sayr va kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan yakka tartibda olib boriladigan ishlarga tayyorgarlik va ularni loyihalashtirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni rejalashtirish bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishning asosi hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyachilar ta'limiy vazifalarni belgilaydi, bolalar bilan birgalikda amalga oshiriladigan ish shakllarini tanlaydi hamda rivojlantiruvchi muhitga kiritilishi zarur bo'lgan o'zgartirishlarni ko'rsatib beradi.

Rejalashtirish ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolaga individual yondashuvni ta'minlab, ularga beriladigan axborot va jismoniy vazifalarni me'yorlashtirish imkonini yaratadi.

Ish rejasining to'liq bajarilishini tahlil qilish esa bolalarning rivojlanish sur'atini kuzatish hamda ular uchun yanada qulay sharoitlar tashkil etishga xizmat qiladi.

Mazkur hujjat pedagog xodim tomonidan ixtiyoriy ravishda elektron (*qog'oz shaklda*) yoki qo'l yozma shaklda yuritiladi. Hujjat sahifalanib, tikiladi va maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Ertalabki qabul – bo'limida bolalarni birlamchi tibbiy ko'rikdan (filtr) o'tkazish, bolaning sog'lig'i va holati haqida ota-onalardan ma'lumot olish, davomatni belgilab qabul jarayonini yakunlash hamda bolalarning qiziqish va xohishlariga qarab ularni turli mehnat faoliyatlariga jalb etish ishlari amalga oshiriladi.

O'yinlar – tarbiyalanuvchilarning qiziqish va istaklari hamda hafta mavzusi asosida ta'limiy, rivojlantiruvchi, syujetli-rolli va sahnalashtirish o'yinlari nomlari qayd etiladi.

Bolalar bilan suhbat – tarbiyachining ish jurnalida ta'lim-tarbiya faoliyati qayd etilib, unda oy mavzusi, sanasi, hafta mavzusi hamda uning maqsadi ko'rsatiladi. Ertalabki qabul jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan quyidagi besh mavzu bo'yicha suhbatlar o'tkazish tavsiya etiladi:

1. Dushanba – “Kelajak soati” (*bolalarda milliy qadriyatlarga sadoqat, Vatanga muhabbat va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga qaratilishi lozim. Pedagog suhbat davomida tarbiyalanuvchilarga ajdodlarimizning boy merosi, va an'analarning qadriyat sifatida ahamiyatini tushuntirib, ularda milliy g'urur va faxr tuyg'ularini uyg'otishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, bolalarning kelajak orzulari Vatan ravnaqi bilan chambarchas bog'lab izohlanishi, suhbat ertak, she'r, milliy qo'shiqlar va hayotiy misollar orqali boyitilishi tavsiya etiladi*).

2. Seshanba – “Odob-axloq qoidalari” (*bolalarda milliy qadriyat, urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, salomlashish, do'stlashish, sog'lom hayot faoliyatiga o'rgatish, mehnatsevarlik, to'g'ri so'zlik, kamtarlik va b.q.*);

3. Chorshanba – “Huquqiy savodxonlik” (*bolalarda men konsepsiyasini shakllantirish maqsadida, ularni Vatan, ota-ona oldidagi burchlari va huquqlari mavzusida suhbatlar o'tkaziladi*).

4. Payshanba – “Yo'l harakati qoidalari” (*bolalar ishtirokidagi yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maqsadida “Xavfsiz piyoda”, “Odobli yo'lovchi”, “Svetofor” kabi mavzularda suhbat olib boriladi*).

5. Juma – “Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va bola xayoti xavfsizligi asoslari” mavzularida (*Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar mavzusida bolalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini o'rnatish maqsadida hamda bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to'g'ri ovqatlanishga, atrof-muhitga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi. Shuningdek, bola xayoti xavfsizligi asoslari mavzusida haftaning shanba va yakshanba kuni dam olish kunlari bo'lganligi sababli, bolalar uyda yolg'iz qolishlari yoki ota-onalar bilan ko'ngil ochar maskanlariga borishlari, suv havzalarida cho'milishlari va boshqa holatlarni inobatga olib, bolalarga begona shaxslar bilan muloqat qilganda, adashib qolganda qanday harakat qilish lozimligi to'g'risida suhbat o'tkaziladi*).

Ta'lim-tarbiya jarayoni

Oy va hafta mavzusiga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayoni rejalashtiriladi.

Ertalabki davra suhbati (umumiy guruh bilan) – tarbiyalanuvchilar hafta mavzusi bilan tanishtiriladi, mavzu doirasida yangiliklarni bilishlari hamda rivojlantirish markazlarda qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari yuzasidan tanishtirilib o'tiladi. (*tarbiyalanuvchilar rivojlantirish markazlarini “Mening tanlovim tablosi” orqali tanlashadi. Shuningdek, tarbiyachiga markazlar faoliyatini yo'lga qo'yishda ota-onalar bilan ishlashi tavsiya etiladi*).

Umumiy guruh bo'lib ishlash (kunning 1-qismida hamda 2-qismida) – frontal faoliyat bo'lib, unga nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish, elementar matematika, badiiy adabiyot, savodxonlikka o'rgatish, tabiatshunoslik va ekologiya asoslari, konstruksiyalar tuzish /applikasiya, loy ishi, tasviriy faoliyat, xorijiy til, jismoniy tarbiya, musiqa faoliyatlari faoliyatlar jadvaliga kiritiladi. Direktor o'rinbosari tomonidan tarbiyachi-mutaxassislar bilan kelishgan holda, ushbu frontal faoliyatlarni olib borish vaqti ishlab chiqiladi va 1-pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

Markazlardagi faoliyatlar – ta'lim faoliyati mavzuli rejalashtirish asosida tashkil etilib, har bir yosh guruhlari uchun alohida oy va hafta mavzulari aks ettiriladi hamda beshta rivojlantirish markazlarida ta'limiy faoliyat turlari tashkil etiladi:

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;
Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi;
Til va nutq markazi;
Fan va tabiat markazi;
San'at markazi.

Namunaviy rejalashtirish berilgan markazlardagi faoliyatlarga, hudud, tuman (shahar)larning ichki imkoniyatlarini inobatga olib yoki ijodiy yondoshgan holda (*asosiy oy mavzusidan chiqib ketilmaydi*) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanib faoliyatda qo'llash mumkin.

Ish jurnalining sayr bo'limi 5 qismdan iborat.

Kuzatish – ikki turdan iborat bo'lib, jonli va jonsiz tabiatni kuzatadi. Obyektga mos bo'lgan mehnat turini tanlashi kerak (*o'z-o'ziga hizmat, xo'jalik-maishiy mehnat, tabiatdagi mehnat, qo'l mehnati (katta va tayyorlov guruhlarida o'tkaziladi)*).

Mehnat - ushbu qismda tarbiyachi maydonchada olib borilishi mumkin bo'lgan bolalarning yoshiga mos mehnat turlarini tanlaydi. Maydonchaga chiqishda albatta mehnat qurollarini ham olib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Harakatli o'yin – jismoniy tarbiya yo'riqchisi tomonidan o'rgatilgan yangi harakatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, asosan 1 ta harakatli o'yin rejalashtiriladi va qayd etiladi.

Asosiy harakat turlarini mustahkamlash – ushbu qism barcha bolalar uchun emas balki, ayrim sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, uloqtirish, irg'itish, turli usullarda yurishda kamchiliklar bo'lgan bolalar bilan olib boriladi va qaysi harakat mustahkamlanishi kerak bo'lsa o'sha harakat qayd etiladi va mustahkamlanadi.

Ixtiyoriy o'yinlar – bolalarning hoxish-istaklariga ko'ra deb qayd etiladi.

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish

(taxminan 13:00 dan 15:00gacha, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning uyqusiz vaqtida)

Badiiy adabiyot – hafta mavzusiga ko'ra tanlanadi.

Pedagog xodimlarning bolalar bilan yakka tartibdagi ishlashi – pedagog xodimlar (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) hamkorligi asosida rivojlanish xaritasida aks ettirilgan indikatorlari bo'yicha yakka tartibda ishlash tashkil etiladi va tarbiyalanuvchi o'zlashtirmagan rivojlantiruvchi sohalar indikatorlari bo'yicha ishlar rejalashtirilib, tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi qayd etiladi.

Kechki davra suhbatlari o'tilgan mavzu tahlili (refleksiya) – ushbu suhbat jarayonida bolalarning kun davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalari (*bola kompetensiyasi*) tahlil qilinadi va umumlashtiriladi hamda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda, ertangi kunda faoliyat yuritadigan markazlar haqida ma'lumot beradi (refleksiya).

Kechki soat

(taxminiy vaqti 16:30 dan 18:00 gacha. 10,5 soatli MTT uchun)

Ikkinchi sayrda – ixtiyoriy o'yinlar, ota-onalar bilan suhbat rejalashtiriladi (*tarbiyalanuvchining o'zlashtirishi, ta'lim jarayondagi ishtiroki, uyga vazifasi, bolaning rivojlanish xaritasi bajarilmagan indekatori bo'yicha (bola shaxsiga tegishli ma'lumot yakka holatda o'tkaziladi) mavzularda*).

Ikkinchi sayrdagi jadvalning izoh qatoriga bir nechta ixtiyoriy o'yinlar tanlanganda jadvalning birinchi qatoriga yoziladi. Ikkinchi qatoriga ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbat mavzusiga izoh talab etilganda va birdan ortiq mavzular tanlanganda mazkur qator to'ldiriladi.

“Ertalabki badantarbiya kompleksi” jadvalini to‘ldirishda tarbiyachi oy davomida mashqlarni quyidagicha rejalashtiradi:

Har oyning 1-15-sanalari (1- va 2-hafta) davomida predmetlarsiz mashqlar, 16 31-sanalari (3- va 4-hafta) davomida esa predmetlar bilan bajariladigan (guruhdagi tarbiyalanuvchilar soniga yetarli bo‘lishi zarur) ertalabki gimnastika mashqlari tashkil etiladi.

Mashqlarni rejalashtirish jarayonida tarbiyachilar tarbiyalanuvchilar yoshini inobatga olgan holda jismoniy tarbiya yo‘riqchisi bilan hamkorlikda oldindan kartotekalar tayyorlab olishlari lozim. Shuningdek, bolakadem.uz elektron platformasida mavjud tayyor kartotekalardan ham foydalanish mumkin.

ERTALABKI BADANTARBIYA KOMPLEKSI

Oy	Hafta		ERTALABKI BADANTARBIYA KOMPLEKSI
Sentyabr	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
Oktyabr	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
Noyabr	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
Dekabr	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
Yanvar	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
Fevral	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
Mart	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
Aprel	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
May	1-2	Predmetsiz	1-2 Ertalabki badantarbiya kompleksi №
	3-4	Predmetli	3-4 Ertalabki badantarbiya kompleksi №

[illegible]

[illegible]

Sana:_____

TA'LIMIY-TARBIYA FAOLIYATI		
Ertalabki qabul		
O'yinlar		
Bog'ichilar bilan suhbat		
Fizikaviy harakat yoki badan tarbiyasi		
KUNNING BIRINCHI YARMI		
Mavzu		
Maqsadi		
Faoliyat turi		
Maqsadi		
RIVOJLANISH HAKKIDA BOLALAR TANLOVI ASOSIDA HAFTALIK MAVZU	(TANLOV) TA'LIM TARBIYA JARAYONLARI	
HAKKIDA (TANLOV) TA'LIM TARBIYA JARAYONLARI	SHAKIL ETISH	
KUZATISH	QOISMIDAGI SAYR	
MEHNAT		
ASOSIY HARAKAT TURLARINI MUSTAHKAMLAHSH		
HARAKATLI O'YIN		
ERKIN O'YIN FAOLIYATI		
TAVSIYA VA KO'RSATMALAR (yoki tavsiyalar)		

Veb-sayitimiz **Zokirjon.com**

Zokirjon.com veb-saytimiz orqali o'zingizga
kerak bo'lgan hujjatlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

**+99891-328-88-38 nomerga murojaat
qilishingiz jek567 izlab telegramga
yozishingiz yoki shu nomerdagi telegram
orqali bog'lanishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z
vaqtida javob beriladi.**


Qisqa guruhlarga 186 listdan iborat
05-02 Shaxsiy ish reja ish jurnalini to'liq holda
olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**